

**TARJIMADA ASLIYAT MATNINI MANBA MATNIGA QAYTA
GAVDALANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

Hamroyeva Sharifa Shukur qizi,

PhD student of Bukhara State University,

s.s.hamroeva@buxdu.uz

[0000-0001-5634-7335](tel:0000-0001-5634-7335)

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima nazariyasi va badiiy tarjimaning dolzarb muammolari yoritiladi. Tarjimashunoslikning ko'p tilli va interdisiplinar xususiyati, uning tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot hamda adabiyotshunoslik bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Badiiy tarjimada muallif uslubini saqlash, mazmun va shakl o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, tarjimonning individual yondashuvi hamda tajribasining ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga keladigan tafovutlar, tarjima transformatsiyalari va ularning turlari ilmiy asosda izohlanadi. Ekvivalentlik tushunchasi va uning asosiy ko'rinishlari (funksional, tasviriy va boshqalar) tahlil qilinib, tarjimada adekvatlikka erishish omillari ko'rsatib o'tiladi. Xulosa sifatida, tarjima ijodiy jarayon bo'lib, unda lingvistik bilimlar bilan bir qatorda badiiy tafakkur va madaniy kontekstni chuqur anglash muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: tarjima nazariyasi, badiiy tarjima, tarjima transformatsiyalari, ekvivalentlik, funksional ekvivalentlik, tasviriy ekvivalentlik, tarjimon mahorati, muallif uslubi, lingvistik muammolar, madaniyatlararo muloqot, adekvat tarjima, stilistika, tarjima jarayoni.

Kirish. Tarjimaga oid tadqiqotlar tarjima nazariyasi va uning jarayonini o'rganishga bag'ishlangan yangi ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu fan o'z tabiatiga ko'ra ko'p tilli va interdistsiplinar xususiyatga ega bo'lib, u tilshunoslik

va madaniyatlararo muloqotga oid tadqiqotlari, falsafa va turli madaniyatshunoslik yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Badiiy tarjima muammosi uzoq vaqt davomida tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida tadqiqotchilarni jalb qilib kelgan. Badiiy tarjimaning turli xil masalalari bilan xorijlik olimlar orasida L.Barxudarov, V.Komissarov, L.Latishov, Yu.Nayda, Ya.Retsker, A.Fyodorov, A.Shveytsar, M.Jeremiy hamda mahalliy olimlar G'.Salomov, J.Sharipov, N.Komilov, I.Mirzayev, M.Bakayeva, A.Hojiahmedov, G.Gafurova, Sh.Safarov, I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov, Q.Musayev, G'.Rahimov va boshqalar shug'ullanishgan. Asliyat matnni tarjima qilish jarayonida tarjimon ko'plab lingvistik muammolarga duch keladi, bu muammolar esa faqat normativ-lingvistik bilimlar bilan emas, balki xususiy til vositalari bilan ham tanishishni talab qiladi. Tillar, stilistik va grammatik xususiyatlar badiiy matnning ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi va asar muallifining til vositalari hamda kompozitsion tuzilishini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Tarjimada nafaqat asar mazmuni, balki uning stilistik o'ziga xosligini ham saqlab qolish zarur.

Adabiyotlar tahlili. M.Jerimi o'zining "Introducing translation studies" asarida tarjima atamasini bir nechta ma'nolarga ega ekanligini ta'kidlab, u umumiy soha (tarjima tadqiqotlari), mahsulot (tarjimasi qilingan matn) yoki jarayon (tarjima qilish jarayoni)ni anglatishi mumkin deb hisoblaydi.¹

Faqat to'g'ri va estetik jihatdan tarjima qilingan ish haqiqatan ham mukammal va ideal san'at asari hisoblanadi va bu jarayon san'at sifatida qaralishi mumkin. Bunday san'at tarjimonning to'g'ri va chiroyli tarjima qilish orasidagi

¹ Munday J., Pinto S. R., Blakesley J. Introducing Translation Studies. – Routledge, 2022. – P.5

muvozanatni topishi, shuningdek, bu ikki jarayonni birlashtirish mahoratini talab qiladi. Shundan kelib chiqib, tarjima amaliyotida quyidagi farqlar kuzatiladi:

1. Tarjimonlarning tajribasi, malakasi va dunyoqarashining farqliligi natijasida yuzaga keladigan tafovutlar;
2. Tarjimonlarning tarjima qilish tamoyillarini turlicha talqin etishi sababli yuzaga keladigan tafovutlar;
3. Tarjimonlarning uslubiy yondashuvi va uning muallif uslubiga ta'siri natijasida tabiiy ravishda paydo bo'ladigan tafovutlar.

Bu tafovutlar tarjima jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini va tarjimonning san'atkorlik ko'nikmalarining turlicha shakllanishini aks ettiradi. Ushbu uchta omil sababli, ma'lum bir asar o'nta tarjimon tomonidan o'z tiliga tarjima qilinganda, har bir tarjima bir-biridan farq qiluvchi natijalar beradi. Badiiy tarjimada muallif uslubini o'ziga xos tarzda tiklashga intilish, tarjima jarayonida yuzaga keladigan farqlarni keltirib chiqaradi. Agar tarjimada muallif uslubi to'g'ri aks ettirilmagan bo'lsa, bunday tarjima asl matnga mos kelmasligi mumkin. Bu holatda, tarjimon bexosdan muallif o'rniga o'z uslubini qo'llagan bo'ladi. Tarjimaning muvaffaqiyatli yaratilishi uchun tarjimonning ikki tilda mukammal bilimga ega bo'lishi, hayotiy tajribasi, badiiy mahorati va muallif uslubini to'liq anglab, uni tarjimada to'g'ri aks ettirish qobiliyatiga ega bo'lishi juda muhimdir.

Tarjimonlar boshqa milliy adabiyotlarda mavjud bo'lgan eng muhim, katta ijtimoiy, adabiy-estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlarni o'z tiliga tarjima qilishga intiladilar. Shuningdek, o'zbek olimi G'aybullar Salomov o'zining "Do'stlik ko'priklari" risolasida "Qayta yaratish jarayoni bilan bog'liq umumiy adabiy-estetik jarayonning uchta asosiy tomoni mavjud: tanishuvdan kelib chiqqan

tarjima, tarjimadan kelib chiqqan tanishuv, hamda ushbu ikki jarayonning sinergetik natijasi sifatida yuzaga keladigan ta'sir. Ushbu uch tomon bir-biri bilan dialektik tarzda chambarchas bog'langan bo'lib, har biri boshqa bilan o'zaro ta'sir qilib, tarjimaning sifatini va uning madaniy-ahamiyatini belgilaydi" deb ta'kidlaydi.²

Muhokama. O'zbek olimi T.A.Kazakova badiiy tarjima til va adabiy faoliyatning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi deb ta'kidlaydi. Shu bilan birga, badiiy tarjima jarayonida ma'noviy aniqlikni yuqori darajada saqlashdan ma'lum darajada chekinishlar ehtimoli mavjud bo'lib, bu holat matnning badiiy xususiyatlarini saqlab qolish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday hollarda tarjimon ko'pincha tarjima transformasiyalaridan foydalanishiga to'g'ri keladi. Ularni maqsadga muvofiq ravishda qo'llash tarjima matni ustidagi ishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tarjima transformasiyalarini tatbiq etish orqali tarjimon original birliklaridan tarjima birliklariga o'tishni taminlaydi.³

V.N.Komissarovning ta'kidlashicha, tarjima transformasiyalari — bu tarjimon tomonidan turli janrdagi va uslubdagi matnlarni tarjima qilishda qo'llaniladigan maxsus tarjima usullari hisoblanadi. Ular leksik moslik vositalarining kontekstual talablarga javob bermasligi yoki bunday mosliklarning mutlaqo mavjud emasligi kabi holatlarda qo'llaniladi. Bunday transformasiyalar orqali tarjimon original matnning ma'no-mazmunini saqlagan holda uni tarjima tili

² Саломов Ф., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Тошкент: Ф.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 3-6

³ Казакова, Т.А. Художественный перевод: Учебное пособие. – Санкт-Петербургский институт внешнеэкономических связей, экономики и права, 2002. – С.22.

qoidalari va uslubiy normalariga muvofiq ravishda ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Olim tarjima transformatsiyalarini quyidagicha guruhlariga bo'lgan:⁴

Leksik transformatsiyalar	Grammatik transformatsiyalar	Leksika-grammatik transformatsiyalar
• transkripsiya • transliteratsiya • kalkalash • konretlashtirish • umumlashtirish • modulyatsiya	• so'zma-so'z tarjima • jumla tuzilishini o'zgartirish • grammatik almashtirishlar	• antonomik tarjima • tavsifiy tarjima • kompensatsiya

1.1-rasm. Transformatsiya turlari

Tarjimon original va tarjima matni o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun bir nechta usullardan foydalanadi. Kompensatsiya va kalkalash original matnni moslash uchun asosiy usullar hisoblanadi. Transkripsiya va transliteratsiya esa chet tillaridan yangi tushunchalarni kiritishda samarali bo'lib, terminologik va stilistik vazifalarni bajarishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, so'zma-so'z tarjima ilmiy va rasmiy matnlar uchun dolzarb bo'lib, mazmun va shakl o'rtasida tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ekvivalentlik tarjima usuli sifatida bir necha turlarga bo'linadi va quyida ularning ayrimlarini havola etamiz.

⁴ Комиссаров, В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М. : Высшая школа, 1990. – 250 с.

1. Ekvivalentlik – bunda xuddi shunday vaziyat uchun butunlay boshqa muqobil ibora ishlatiladi, ya'ni maqollar yoki idiomatik ifoda vositalari bularga misol bo‘la oladi.

2. Funksional ekvivalentlik – bunda tarjima tili leksikasida so‘z asliyat tili leksikasidagi bir xil vazifani bajaruvchi matn uslubiga mos keladigan so‘z bilan almashtiriladi.

3. Tasviriy ekvivalentlik – ushbu usulda leksik birlikni bildiruvchi so‘zning ma'nosi bir necha so‘zlarda tushuntiriladi.

4. Eslatmalar. Eslatmalar ma'lumotlarni kichik hajmda yozish va tarjima qilayotganda to'liqroq axborot berish va mazmuniy bog'liqliklarni va gaplar ketma-ketligini saqlashda yordam beradi. Ularni tarjimonga tushunarli tizimda kodlash deb atash ham mumkin chunki odatda har bir tarjimonning ma'lum birkimalar uchun maxsus belgilari bo'ladi. Leksik birliklarning eslatmalar orqali berilishi tarjimon uchun qulay bo'lib, jarayonda juda qo'l keladi.⁵

Qisqacha qilib aytganda, tarjimada ekvivalentlik ko'p qirrali va nozik tushuncha bo'lib, u rasmiy va dinamik ekvivalentlikdan tortib, kommunikasiyaviy va funksional ekvivalentlikkacha bo'lgan turlarni qamrab oladi. Ekvivalentlikka erishish manba va maqsad tillarining chuqur bilimlarini, shuningdek, matn joylashgan madaniy kontekstni teran tushunishni talab qiladi. Lingvistik va madaniy omillarni puxta hisobga olib, asliyatga sodiqlikni maqsad tilda o'quvchanlik va tabiiylik bilan muvozanatlash orqali tarjimonlar manba matnning ma'nosi, uslubi va tonalligini aniq aks ettiradigan tarjima yaratishi mumkin. Shu tariqa, tarjima jarayonida haqiqiy ekvivalentlikka erishish mumkin bo'ladi.

⁵ Yo'ldoshev U.R. Tarjimada ekvivalentlik va uning turlari tarjimada ekvivalentlik va uning turlari. /– *Konferensiyalar | Conferences*, 1(1) 2023. – B. 300-306.

Xulosa. Tarjimada til va adabiy an'analar birikmasi asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini to'laqonli yetkazishda muhim omil hisoblanadi. Bunday holatda tarjima usullaridan samarali foydalanish tarjimani adekvat bo'lishiga yordam beradi. Asliyat matnini tarjimada qayta gavdalantirish — bu oddiy lingvistik o'girish emas, balki muallifning niyatini, uslubini, badiiy obrazlarini yangi til vositalari orqali qayta yaratish jarayonidir. Bunda tarjimon ijodkorlik bilan yondashib, matnning semantik qatlamlarini to'g'ri ochib berishi va tarjima transformatsiyalaridan unumli foydalanishi lozim. Xususan, obrazlar, badiiy vositalar, ramzlar va matn strukturasini yangi til muhitida moslashtirish tarjimonning mahoratini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Казакова, Т.А. Художественный перевод: Учебное пособие. — Санкт-Петербургский институт внешнеэкономических связей, экономики и права, 2002. — С.22.
2. Комиссаров, В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). — М.: Высшая школа, 1990. — 250 с.
3. Munday J., Pinto S. R., Blakesley J. Introducing Translation Studies. — Routledge, 2022. — P.5.
4. Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. — Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. — Б. 3-6.

5. Yo'ldoshev U.R. Tarjimada ekvivalentlik va uning turlari tarjimada ekvivalentlik va uning turlari. /– Konferensiyalar | Conferences, 1(1) 2023. – B. 300-306.
6. Hamroyeva Sharifa Shukur Qizi. (2023). ISSUES OF TRANSLATING NATIONAL COLORING WORDS - REALIAS IN THE NOVEL “NAVOI” BY OYBEK. International Journal Of Literature And Languages, 3(04), 29–33. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue04-06>.
7. Qizi, H. S. S. (2023). THE ANALYSIS OF THE ENGLISH TRANSLATIONS OF ABDULLA KADIRI'S “O‘TKAN KUNLAR”. American Journal of Philological Sciences, 3(05), 82-87.
8. Sharifa, H. (2024). Overview of the Problems of Equivalence in Translating Texts. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 29, 7-10.
9. Хамроева, Ш. 2025. Анализ национально-культурной лексики в английских переводах узбекского исторического романа «Звездные ночи» Пиримкула Кадырова. Зарубежная лингвистика и лингводидактика. 3, 2/S (фев. 2025), 241–245. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss2/S-pp241-245>.